



O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYASINI JORIY ETISH MASALALARI

Alimuxamedova Zuhra Shavkat qizi

Ilmiy rahbar Sa’dullayeva Gulnoza Usmanovna

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida Islom moliyasini joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Unda mamlakatning moliyaviy tizimini diversifikatsiya qilish zarurati, Islom moliyasining asosiy tamoyillari va uning afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, Islom moliyasini rivojlantirish yo‘lidagi asosiy to‘siqlar, jumladan, huquqiy va me‘yoriy bazaning yetishmasligi, malakali mutaxassislarining kamligi hamda aholining Islom moliyasi bo‘yicha yetarlicha xabardor emasligi muhokama qilinadi. Muallif, shuningdek, Islom moliyasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma va mahsulotlar haqidagi tavsiyalarni taqdim etadi. Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida Islom moliyasi imkoniyatlari va cheklovlarini chuqur o‘rganishga bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *islomiy moliya, islom banki, islom iqtisodi, ribo, islom fiqhi, mudoraba, murobaha, mushoraka.*

Har qanday davlat yoki tashkilotni, uni tartibga solib turuvchi qonunlar mavjud bo‘lgan taqdirda faoliyat yuritadi. Musulmon insonlarning hayot tarzini tartibga solib turuvchi qonun - qoidalar majmui bu - shariatdir. Shariat bu 1500 yillik ma‘naviy, axloqiy va huquqiy hamda iqtisodiy tizim hamdir. Islom moliyasi manashu shariat qonun - qoidalariga asoslangan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Avval 622 – 661 - yillarda islom moliyasi tamoyillari Arabistonning yarim Orollarida arablar tomonidan qo‘llanilgan. Hatto payg‘ambar Muhammad S.A.V ham vahiy tushmasdan avval shu tamoyillardan foydalanib savdo qilganlar. Shu paytlarda ribo [ya‘ni foizga asoslangan moliyaviy munosabat] lar ancha avj olgan edi . Shunda olloh riboni xarom qildi, va vahiy tushgandan so‘ng esa Muhammad S. A. V birinchi navbatda shu munosabatni taqiqlaganlar.

Keyinchalik islom moliyasi bir necha bosqichlardan o‘tib hozirgacha yetib keldi. Ushbu qonunlar 4 manbaga ega: 1. Muqaddas qur‘on bo‘lib , u diniy bilimlarni asl o‘zgarmas manbasi hisoblanadi . Qur‘on payg‘ambar Muhammad S. A .V orqali , Jabroil alayhissalom vositasida yetkazilgan Allohning vahiylarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, butun insoniyatga yo‘llangan ilohiy ko‘rsatma . 2. Hadis hisoblanadi . Payg‘ambar Muhammad S. A . V ning qavmlari yoki ular bilan bog‘liq voqeliklarni ifodalovchi rivoyat bo‘lib Muhammad S. A. V ning sunnatlari asosini tashkil etadi. 3.





Ijmo - bu obroli islomiy olimlar tomonidan aniq bir masala yoki xolat uchun ishlab chiqilgan yechim. Islom an'analari Qur'on va sunnatdan mustaqil xulosa qilish huquqiga ega inson, „Mujtaxid“ deb ataladi. 4. Qiyos-bu atamaning asl ma'nosi o'lchash yoki ikki ashyo o'rtasida taqqoslash o'tkazish so'zlaridan kelib chiqib, Qiyos murakkab va munoarali masalalar bo'yicha Qur'on va xadislarda bayon etilgan asoslarga ko'ra, mujtaxidlar tomonidan yangi yechimlarni ishlash va hukm chiqarishdir.

Islom moliyasida bir qancha bitimlar bor ulardan asosiylari: Birinchi bitim – „sarf“. Sarf bu tomonlar o'rtasida moddiy qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarning, masalan dinor (oltin), dirham (kumush) yoki shularning zarb qilingan, quyma yoki boshqa ko'rinishlari, hamda hozirda muomalada bo'lgan pul birliklari (valyutalar)ning bir-biriga ayirboshlanishiga ya'ni olib-sotilishiga) aytiladi. Ikkinchi bitim – „murobaha“. Murobaha bu sotuvchi yoki moliya muassasasining biror bir mahsulot (masalan qandaydir uskuna) tannarxiga buyurtma bergan xaridor bilan kelishilgan muayyan ustamani qo'yib, ma'lum bir muddat ichida bo'lib - bo'lib to'lash sharti bilan shu xaridorga sotishidir.

Uchinchi bitim – „mudoraba“. Mudoraba sherikchilik bitimining bir ko'rinishi bo'lib, bunda sarmoya egasi (rabb-ul mol), ish yurituvchi (mudorib) bilan sherikchilik asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun sarmoya ajratadi. Bunday sherikchilikda tadbirkorlik faoliyati to'liq ravishda mudorib tomonidan boshqariladi. Faoliyat davomida ko'rilgan foyda oldindan kelishilgan nisbatda bo'linadi, zarar esa faqat sarmoya egasi zimmasiga tushadi. To'rtinchi bitim – „salam“. Salam mahsulot uchun to'lov darhol amalga oshiriladigan, mahsulot esa keyinroq xaridorga yetkazib berilishini ko'zda tutadigan bitimdir (bunda, sotilayotgan mahsulot bitim tuzilayotgan paytda mavjud bo'lishi ham, mavjud bo'lmasligi ham mumkin).

Salam shartnomasi ko'proq qishloq xo'jaligida qo'llaniladi. Beshinchi bitim – „istisna“. Istisna ham salam kabi hali ishlab chiqarilmagan mahsulotni sotish shartnomasidir. Bu shartnoma, ishlab chiqaruvchi buyurtma berilgan mahsulotni o'z xom ashyosidan ishlab chiqarishini ko'zda tutadi. Ushbu bitim huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun, ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan mahsulotning narxi, sifati va xususiyatlari tomonlar o'rtasida aniq kelishib olinishi kerak. Oltinchi bitim - „mushoraka“ ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi mulkiy sherikchilik bo'lib, bunda har bir sherik ma'lum miqdordagi pul yoki mol-mulk shaklidagi sarmoyasini umumiy biznesga tikadi va ushbu biznes doirasida qurilgan foyda tomonlarning kelishuviga asosan zarar esa xar bir sherikning umumiy sarmoyadagi ulushiga





mutanosib ravishda taqsimlanadi. Islom banklarinig an'anaviy banklardan farqi shundaki, Islom banklarida :

1. Foyda yoki zarar bo'lganda investor va tadbirkor o'rtasida qancha ulushlarda bo'linishi kontraktida ko'rsatiladi .

2. Foiz (ribo) qat'iyon taqiqlanadi. Uning o'rniga daromaddan ulush oladi, agar tadbirkor foyda emas zarar ko'rsa kontrakt shartlariga muvofiq ulushlarda bank va tadbirkor o'rtasida bo'linadi.

3. Tadbirkor kredit qaytarilishi kerak bo'lgan muddatdan o'tgan har bir kun uchun qo'shimcha foiz (jarima) to'lamaydi .

4. Omonatga qo'yilgan pullarni ma'lum muddatda foizi bilan olishni kafolatlamaydi .

Bu bank daromadiga bog'liq. An'anaviy banklarda esa :

1. Investor bankka qo'ygan pulini qancha foiz bilan qaytarib olishni oldindan hisoblab ko'rishi mumkin.

2. Pulni qarzga berish va uni foizi bilan qaytarib olish tijorat bankining asosiy faoliyatidan biri hisoblanadi. Tadbirkorning biznesi muvoffaqiyatli yuradimi yoki bankrot bo'ladimi kreditni foizi bilan bankka to'liq qaytarishi shart.

3. Tadbirkor kredit. qaytarilishi kerak bo'lgan muddatdan o'tgan har bir kun uchun qo'shimcha foiz (jarima) to'laydi .

4. Omonatga qo'yilgan pullarni ma'lum muddatda foizi bilan olishni kafolatlaydi.

Birinchi islom bankga 1963 – yilda misrda asos solingan . Reuter agentligining ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda 300 dan ortiq Islom banklari va 200 dan ortiq islomiy darchalar dunyoning 67 davlatida faoliyat ko'rsatmoqda. Islom banklarining umumiy kapitali 2 tirillion aqsh dolloridan oshdi. Islom banklari saudiya arabistoni, iroq, quvayt, malayziya, BAA, pokiston, bangladesh, turkiyada ancha rivojlangan. Bundan tashqari Germaniya, Aqsh, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Irlandiya, Leyksenburg va boshqa davlatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyoning 130 dan ortiq universitetlarida islom banki va moliyasi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Shu jumladan, jahonning quyidagi eng mashhur universitetlarida ham maxsus kurslar tashkil qilindi . Ularda bakalavr , magistratura, doktorantura bosqichida talabalar tahsil olmoqda. O'rta osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib qozog'istonda 2010 – yil martda birinchi islomiy bank “ al-hilol ” bank amaliyotini o'tash uchun ruxsatnoma oldi. 2017





- yil 17 - avgustda “zamanbank” islomiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha litsenziya oldi va o‘z faoliyatini boshladi. 2009- yil aprelda qirg‘izistonda “ bank va bank faoliyati to‘g‘risida ” gi Qirg‘iziston respublikasi qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish va boshqalar qabul qilindi. Mazkur tuzatishlar islomiy va “ islomiy darcha”ga ega bo‘lgan an‘naviy banklarda moliyalashtirishning islomiy usullarini qo‘llash uchun imkoniyatlar yaratdi.

Islom moliyasidagi eng katta taqiqlardan biri bu ribodir. Ya’ni „ ribo ” - islom moliyasidagi eng asosiy taqiqlardan biri, islom fiqhida esa eng katta gunohi kabiralar qatoriga kiradi. „Ribo an-nasiya” qarz munosabati asosidagi almashinuv jarayonida Kechiktirilgan muddat uchun qo‘shimcha qiymat ustam a olish orqali foydaga erishishdir. A’naviy banklarning foiz asosidagi qarz berish amaliyoti ribo annasiya ayni o‘zi bo‘lib , bunda qarzdor kredit shartnomasi bo‘yicha pul (foiz) xam to‘laydi. Riboning xarom qilinishing xikmatini nimada? Quvayt fiqh ensiklopediyasida ushbu savolga javob sifatida quyidagi Muloxazalar keltirgan. Mufassir ulomolar riboning xarom qilinishida bir qancha shar’iy sabablarni keltirishgan: Birinchidan „ribo“ –bir inson boshqa bir insonning molini evassiz olishini taqozo etadi. Chunki kimdir bir so‘mni ikki so‘mga sotsa (almasha) u xox naqd bo‘lsin , xox nasiya xech qanday evassiz ortiqcha bir so‘mni qo‘lga kiritayotgan bo‘ladi. Musulmon kishining moli uning extiyojlariga bog‘liq bo‘ladi va uning moli daxlsiz xisoblanadi. Payg‘ambarimiz muhammad (s.a.v) ning „ musulmon molining xurmati uning qoning xurmati kabidir” (ya’ni qoniga tajovuz qilish xarom bo‘lganidek , uning moliga tajovuz qilish ham xarom) degan ma’noda xadislari bor. Foyda keltiradigan xar qanday qarz ribodir. Qarz berganda odamlarga yordam berish, ularning xayotini yengillashtirish iroda qilinadi . Shariatimiz qarzni foyda keltiruvchi manba qilib olishdan qaytargan. Shuning uchun qarz beruvchi o‘zi bergan qarzning aynan mislini olishgagina xaqqi bo‘ladi. Agar qarz berishdan biror foyda shart qilinsa yoki shart qilinmasa xam, biror narsa qo‘shib berish urfga kirib qolgan bo‘lsa, yoki kimdir qarz olib unga foyda qoshib berishni odat qilib olgan bo‘lsa , olingan foyda xarom bo‘ladi. Birinchidan , bank kredit tizimida jiddiy kamchilik hisoblanadi.

Islom iqtisodiyotida foyda me’yori-foiz stavkasidan farqli ravishda, resurslarni taqsimlashning yanada samarali va oqilona mexanizmi zamonaviy iqtisodiyotning ko‘plab salbiy tendensiyalari (monopollashtirish , boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi keskin farq , moliyaviy inqirozlar va boshqalar)ga qarshi turuvchi tizim bo‘lganligi uchun ham jiddiy o‘rganishga loyiqdir. Islom moliyasi sohasi oldida turgan boshqa qator muammolarni ham sanab o‘tish mumkin, negaki „murakkablik va muammolar” har qanday tizimga xos. Muammolarni anglab yetish va tan olish samarali yechimlar





topish yo'lida boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Bu esa tizimning o'zi va uning barcha „tarkibiy qisimlarini“ sog'lomlashtiradi. Agar soha vakillari yuqorida aytib o'tilgan muammolarning hech bo'lmasa bir qismini hal qilishsa ham, bu- tizimning rivojlanishi va yuksalishida ulkan qadam bo'lar edi.

REFERENCES

1. Ahmed, S. (1989), Islamic Banking and Finance, Journal of Monetary Economics, Vol 24, pp. 157-167.
2. Blitz, R. and Long, M. (1965), The Economics of Usury Regulation. Journal of Political Economy, Dec., pp. 608-619.
3. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.
4. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY ANAMIYATI. AXBOROTKOMMUNIKACIYA TEXNOLOGIYALARI VA TELEKOMMUNIKACIYALARNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ECHIMLARI ONLAYN RESPUBLIKA ILMIIY-TEHNIK ANJUMANINING MA'RUZALAR T'PLAMI, 2 (6), 794
5. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES. Scientific progress, 2 (6), 1525-1532.
6. M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. (2021). CHALLENGES OF MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scientific progress, 2 (6), 1533-1537.
7. MMQ Tojiyeva, AAU Abdullayev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.

